Oliy ta’limda olib borilayotgan islohotlarning yaqqol misoli sifatida 2022 yilning o‘zida 35 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi va yil mobaynida ularning soni 41 taga yetdi. Yana muhim vakolatlardan biri OTM strategik rejalarini tuzish. Bulardan tashqari moliyaviy masalalardagi vakolatlar ham bor. Kvotalar masalasi ham xuddi shunday mustaqil tarzda hal qilinyapti. Bosqichma-bosqich boshqa OTMga ham bunday vakolatlar berish ko‘zda tutilgan. 2026-yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. 2022-yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygochlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo‘ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish. Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish. Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o‘quv yurtlari sonini 10 taga yetkazish. Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo‘ljallangan “Yoshlar shaharchasi”ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish. Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg‘armasini, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang‘ich raqs san’ati maktab-internatini tashkil etish. 2026-yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish² belgilangan bo’lib amalda ularning soni 2023-yildayoq ularning soni 64 taga yetgazilgani islohotlar natijasi zamirida deyish mumkin.

Nodavlat oliy ta’limini tubdan rivojlantirish hamda ta’lim sifatini taminlash maqsadida shoshma shosharlik va ko‘r ko‘ronalikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Darhaqiqat son jihatdan ustunlikka erishish sifat unutilishi kerak degani emas. Bunga misol tariqasida “VALLEY INNOVATIVE UNIVERSITY” MCHJga nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan litsenziyasi bekor qilindi. Farg‘ona

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sodan

tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 17-iyuldagisi hal qiluv qarori bilan “VALLEYINNOVATIVE UNIVERSITY” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga 2022-yil 13-dekabrda nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan 053546-sonli litsenziya bekor qilindi. Bo‘lib o‘tgan sud majlisi muhokamalarida oliy ta’lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan qo‘pol qoidabuzarliklar sudga taqdim etilgan asosli hujjatlar bilan o‘z isbotini topdi. Nodavlat ta’lim sohasida umumiy va alohida litsenziya talablari hamda shartlariga rioya etishda qator qo‘pol qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yanligi aniqlandi. Jumladan:

- 1) mazkur oliy ta’lim tashkilotining litsenziyada ko‘rsatilgan foydalanish uchun ajratilgan bino-inshootlari muassislarga mulk huquqi yoki ijara shartnomasi asosida tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emas;
- 2) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining HEMIS axborot tizimiga ta’lim oluvchilar va pedagog xodimlar to‘g‘risida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumotlar kiritilmagan;
- 3) vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bilan shug‘ullanadigan rektor maslahatchisi shtat birligi joriy etilmagan;
- 4) ta’lim tashkilotining bankdagi hisob varag‘ida 150 ming AQSH dollari yoki shu miqdor ekvivalentdagi mablag‘ mavjud emas;
- 5) 60 ta kompyuter texnikasi bilan jihozlangan elektron kutubxona va 20 ta kompyuter texnikasi, skaner va nusxa ko‘chirish apparati bilan jihozlangan axborot-resurs markazi tashkil etilmagan;
- 6) ta’lim oluvchilar har bir fandan o‘quv adabiyotlari (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari) bilan ta’minlanmaganligi aniqlandi³.

Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan nodavlat oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish faoliyatini litsenziyalash bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilindi. Tahlillar davomida ushbu yo‘nalishda mas’ul tashkilotlar tomonidan belgilangan vazifalar samarali amalgalama oshirilmayotgani, normativ-huquqiy bo‘shliqlar va boshqa korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyil bo‘lgan holatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, **2022-yil va 2023-yilning o‘tgan davri davomida** faoliyati litsenziyalangan **65** ta nodavlat oliy ta’lim muassasalaridan **38** tasiga litsenziya berishda **82** ta holatda turli kamchilik va qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan. Xususan, **22** ta holatda talabgorlarga davlat yong‘in

³ <https://oliygoz.uz/post/bir-xususiy-oliygoz-litsenziyasi-bekor-qilindi>

nazorati va sanitariya-epidemiologiya xizmati organlarining **tegishli xulosalari olinmagan** holda litsenziya berilgan. Shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan talabgorlar tomonidan qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq elektron tizimga **o'quv reja va fan dasturlari to'liq yuklanmagan yoki umuman yuklanmagan** bo'lsa-da, ularga litsenziyalar berib kelingan. Tahlil yakunlari bo'yicha Agentlik tomonidan nodavlat oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish faoliyatini litsenziyalash sohasida mavjud **korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar** ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi⁴.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'yemoqda. Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarining tizimdagi kamchiliklarnianiqlash va ularni keyinchalik yo'q qilish, shuningdek, ularning rivojlanish potentsiali va yo'llarini aniqlash uchun ba'zi omillarning boshqalarga ta'siri mezonlarini belgilashga imkon beradi. Bularning barchasi ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

⁴ <https://anticorruption.uz/uz/item/2023/08/17/nodavlat-oliy-talim-muassasalari-faoliyatini-litsenziyalash-bilan-bogliq-korrupsiyaviy-xavf-xatarlarni-bartaraf-etish-boyicha>

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISH.

Nosirova Munisa

Qashqadaryo viloyat Koson tuman 5-maktabning ona tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lif tizimida o'qituvchilar tomonidan noan'anaviy ta'lif metodlari joriy etilib, o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy metod va usullarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An'anaviy o'qitish jarayonida asosan o'qituvchi darsni olib borsa, noan'anaviy o'qitish jarayonida esa o'quvchi shaxsiga erkinlik berish, uning mantiqiy fikrashi, munosabatlarni demokratlashtirish asosida dars jarayonlari tashkil etiladi. Bunda ta'lif jarayonida o'yinlardan foydalanish ham muhim o'rincutadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, mahorat, mantiq, didaktik o'yinli texnologiyalar, malaka, ko'nikma.

Ma'lumki, mustaqil fikrashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'lifning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyatga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatlici, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqlarda barcha o'quvchilar oldiga qo'yilgan talab bir xil, ammo o'quvchilarning saviyasi bir xil emas. Tabiiyki, topshiriqlarni hamma bir xilda to'g'ri bajara olmaydi. Bunday holda qo'shimcha topshiriqlar berish orqali mashq shartini soddalashtirish yo'li bilan o'quvchilarni qiziqtirish mumkin. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ular nutqini narsa va shaxslarni bildirgan so'zlar bilan boyitish ham muhim rol o'ynaydi. Birinchi sinfda narsa va shaxsnini

bildirgan so'zlar haqida tushuncha berishda o'quvchilar faolligiga asoslanish lozim. Chunki ular narsa va shaxs nomlarini bildirgan so'zlarni o'zlashtirishga savod o'rgatish jarayonida tayyorlangan. Predmetlarga qarab ularning nomlarini aytishgan. Bundan tashqari o'qituvchining —Bu nima?, Bu kim, —Kim ishdan qaytdi?, —Kim ertalab mактабга yo'l oldi? kabi savollaridagi «kim», «nima» so'roq so'zlari o'rнiga shaxs, narsa nomlarini qo'yib javob berishgan. Shuning uchun ham savod o'rgatish jarayoni predmet bildirgan so'zlar ustida ishlashning birinchi bosqichi sanaladi.

Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarining tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham Milliy o'quv dasturiga ko'ra o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga e'tibor beriladi va sinflar kesimida amalga oshiriladi.

Nutq faoliyatni uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatlari o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiyl maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiyl maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, tasviriy san'at, musiqa darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

Xulosa: Pedagogning mahorati ta'sir etishning to'g'ri yo'lini tanlashdir. Bola uchun qulay psixologik iqlim yaratish, uning individual xususiyatini rivojlantirish, ijtimoiy minosabatlarni shakllantirish va mustahkamlash yosh avlodni kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagog yoshlarga ta'lim berib tarbiyalaydi, tarbiyalab ta'lim beradi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyatda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Ernazarov. Ona tili o'qitish metoikasi. –Toshkent, 2017 yil
2. "Pedagogika". Toshkent, "O'qituvchi", 2013 yil
3. "Ona tili" kitobi, 1-4--sinf, Toshkent, 2017 yil
4. Fuzayilov S, Xudoyberganova M, Yo'ldosheva Sh. 3-sinf uchun ona tili darslik Toshkent: —O'qituvchil, 2019.-152bet

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

SANOAT KORXONALARIDAN CHIQADIGAN GAZLARNING INSON SALOMATLIGIGA TA`SIRI.

*Abdujalilova Moxinur Valijon qizi
Toshkent davlat transport universiteti
ATM fakulteti 2-bosqich talabasi
abdujalilovamohinur03@gmail.com*

+998 90 907 38 49

*Farmanova Fotima Faxriddinovna,
Buxoro davlat universiteti 2-1 eko-20 guruh talabasi,
ffarmonova1@gmail.com*

Annotasiya: Ushbu maqolada bugungi kunning global muammolaridan biri sanoat korxonalaridan chiqadigan gazlarning inson salomatligiga va atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: absorbsiya, adsorbsiya, rekuperatsiya, antropogen o'zgarishlar, flora, fauna, redutsent.

1. KIRISH

Hozirgi taraqqiyotning asosini ilim fanning rivojlanishi va shu asosida tabiiy resurslardan foydalanish ko'laming ortishi bilan izohlanadi. Inson ehtiyojlarining ortishi, resursga bo'lgan talab va ularni sanoat miqiyosida qayta ishlash va ishlab chiqarish salmog'ini oshirishni talab qilmoqda. Buning natijasida sanoat korxonalarini, zavod, fabrikalardan chiqadigan zaharli gazlar miqdor va sifat jihatdan oshib bormoqda. Qadimgi odamga o'zining barcha hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun 18 ta, XVIII asrda — 28 ta, XIX asrda — 47 ta, XX asming boshida - 59 ta kimyoviy elementlar va ularning birikmalari zarur edi. Hozirda esa 100 ga yaqin element va ularning birikmalaridan foydalanilmoga. XX asr davomida har yili yer ostidan hozirgi zamon ishlab chiqarish darajasida 100 mlrd. tonna turli-tuman tog' jinslari qazib chiqarilar edi. XX asming oxiriga borib bu miqdor 600 mlrd. tonnagacha ko'paydi. Ayniqsa, mineral xomashyodan foydalanish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Agar sobiq Ittifoqda 1960-yilda mineral xomashyo hissasiga iste'mol qilinuvchi dastlabki material va mahsulotlaming 50% i to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda esa ushbu xomashyo mutlaq ustun turuvchi xomashyoga aylandi. AQSHda 1940-yildan butun insoniyat

tomonidan hozirgacha ishlatilib kelinganidan ham ko‘p mineral xomashyo ishlab chiqarishga jalg qilingan. [1] Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki yildan-yilga ishlab chiqarish jarayonining jadallahuvi oqibatida zavod va korxonalar uchun ishlatiladigan mahsulotning ortishini ko‘rish mumkin.

2. ASOSIY QISM

Atrof-muhitning ifloslanishi, ayniqla sanoat chiqindi gazlari emissiyasi inson immunitet tizimining buzilishiga olib keladi va shuning uchun sog'liq uchun xavf tug'diradi, ayniqla gipertoniya, yurak kasalliklari, surunkali o'pka kasalliklari va diabet kabi surunkali kasalliklarning yuqori ko'rinishini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, tabiatning holati birdaniga va darhol yomonlashib qolmaydi. Bu jarayon uzoq vaqt davom etadi. Boshqacha aytganda, ekologik vaziyat asta-sekin yomonlasha boradi. Ekoliya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtixnoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlaming manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bogliqdir. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o‘zaro ta’siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ulami butun sayyoramiz ko‘lamida hal qilish zarur. Ekoliya muammosi Yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb. Faqat uning dolzarblik darjasini dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida turlichadir.[3]

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning g'oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o‘n yillarlar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatar ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir. Tabiatga qo‘pol va takabburlarga muomalada bo‘lishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi.

«Inson tabiatning xo‘jayini», degan soxta mafkuraviy da’vo, ayniqla, Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiaga aylandi. Afsuski, bu jarayonlar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Bu yerda, mutaxassisislaming baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimadan iborat? Birinchidan, yerning

cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida yer Olloh Taoloning bebaho in'omidir. U tom ma'noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog'langan oilalargina emas, balki ma'lum bir tarzda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq barcha tarmoqlar va uning ne'mthalidan bahramand bo'layotgan respublikaning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtda yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hoi O'zbekistonda ayniqsa, namoyon bo'lmoqda, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan yilga kuchayib bormoqda.

3. MATERIAL VA METODIKA

Ekologiya juda o'ziga xos fan bo'lib, u ayrim tur vakillarinigina emas, balki tur vakillari guruhini, ularning populyatsiyasi, turlari, ular hosil qiladigan turli senozlar, biotsenozlar, ekosistemalarning o'sish, rivojlanish, tarqalish yo'llari, ular ichidagi munosabatlarni, doimiy harakatlari, moddalar almashinuvi va energiya oqimi kabi qonunlarni o'rganadi. Ekologiya o'rganadigan muammolarning har xilligi turli uslublarni qo'llashni talab qiladi. Ekologiyada quyidagi, ya'ni: dala, laboratoriya, eksperi- mental va matematik model uslublari qo'llaniladi.[1]

4. OLIB BORILGAN TADQIQOT NATIJALARI

Har yili atmosfera havosiga tarkibida oltingugurt IV oksidi, uglerod II, IV oksidlari bor bo'lgan 2.5 mlrd. tonna gaz chiqindilari turli korxonalardan tashlanadi. [1] Masalan, yiliga 150 mln. t. gacha S 0 2; 70 mln.tonna chang qurilish korxonalar, qora va rangli metallurgiya va boshqa korxonalar tomonidan tashlanadi.[2] Atmosfera havosi eng ko'p ifloslanishiga, shuningdek, avtotransport vositalaridan tashlanadigan gazlar sabab bolmoqda. Ushbu ichki yonuv dvigatellarida yoqilg'inining to'liq yonmasligi tufayli hosil bo'layotgan gaz 200 turli o'ta zaharli gazlar aralashmasidan iborat bo'lib, ularga CO,CO₂, parafln va olefin qatori uglevodlari, aromatik birikmalar, aldegidlar, azot oksidlari, qalay birikmalari kiradi. Bu gazlar ichida kanserogenlik xususiyatiga ega bo'lgan zaharli modda 3,4-benzopiren 30% ni tashkil qiladi. Ushbu gazlar ko'p hollarda tirik organizmlarga zararli bo'lgan hodisa quyqum(smog)ning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Atmosfera havosiga chang chiqindilari ko'plab tushishi havo tiniqligini yomonlashtirish bilan birga quyosh radiatsiyasi tezligi va spektri

o'zgarishiga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda havo ifloslanishi sanoat faoliyati natijasida paydo bo'ldi, shuningdek, nomaqbul transport vositalari kabi emissiya manbalari miqdonini ko'paytirdi.[11,12,13] Taxminan 4,3 million kishi maishiy havoning ifloslanishidan va 3,7 million kishi atrof-muhit havosining ifloslanishidan vafot etadi. , ularning aksariyati (mos ravishda 3,3 va 2,6 million) Osiyoda yashaydi.[14] Rivojlanayotgan mamlakat sifatida Eronda 1970-yillarda sanoatlashtirish boshlanganidan beri havoni ifloslantiruvchi moddalar darajasi astasekin o'sib bordi, ammo Tehron, Mashhad, Tabriz, Isfahon, Ahvaz, Arak, va boshqalar kabi ba'zi megapolislarda juda zararli darajaga yetdi. va Karaj so'nggi yigirma yil ichida. Eron dunyodagi uchinchi asosiy ifloslangan davlat bo'lib, bu yiliga 16 milliard dollar zarar keltiradi.[15] Darhaqiqat, havosi ifloslangan o'nta shaharning to'rttasi Eronda joylashgan. Ahvoz qo'shni mamlakatlardan kirib kelayotgan mikrochanglar va zarrachalar miqdori Pekindan uch barobar, Londonnikidan qariyb 13 barobar ko'p bo'lgan dunyoning havosi eng ifloslangan shahardir[16]. Havoning ifloslanishi 2013 yilda faqat Tehronda deyarli 4460 kishining o'limiga sabab bo'ldi, ammo haqiqat yanada yuqori bo'lib tuyuldi va yildan-yilga yomonlashmoqda.[17] Shuning uchun muammoni, xususan, uning inson salomatligiga toksik ta'sirini tasvirlash va Eronda havo ifloslanishi sohasidagi ekologik ko'rsatmalar va standart protokollar uchun asos sifatida tavsiyalar berish katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqola tizimli ko'rib chiqish ham, tavsiflovchi, ta'limiylardan tadqiqot ham emas. Bu muammoga asoslangan tavsiflovchi sharh bo'lib, unda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy sog'liq va ekologik muammo bo'lgan muammoni tushuntirishga harakat qilishadi. Ushbu sharhda biz havoni ifloslantiruvchi moddalar va ular bilan bog'liq kasalliklarning toksikologiyasini mumkin bo'lgan ta'sir mexanizmi va bemorlarni to'g'ri boshqarish bilan umumlashtirishga harakat qildik. Shuning uchun u atrof-muhit va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislar, xususan siyosatchilar, shoshilinch shifokorlar va havo ifloslanishi va shunga o'xshash kasalliklarga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa klinisyenlar uchun foydali bo'ladi. Ushbu maqolada biz havo ifloslanishi manbalarini ham muhokama qilamiz va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonun chiqaruvchilar va qaror qabul qiluvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi mumkin bo'lgan echimlarni taklif qilamiz.

5. XULOSA

Atmosferaning ifloslanishi so'nggi o'n yilliklarning asosiy muammosi bo'lib, u inson salomatligi va atrof-muhitga jiddiy toksikologik ta'sir ko'rsatadi. Ifloslanish manbalari kichik birligi sigaretaning va vulqon faoliyati kabi tabiiy manbalardan tortib avtomobil motorlari va sanoat faoliyatidan chiqadigan katta hajmdagi emissiyagacha turlicha hajmda ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera ifloslanishining kasalliklarning boshlanishiga uzoq muddatli ta'siri. nafas olish yo'llari infektsiyalari va yallig'lanishlari, yurak-qon tomir disfunktsiyalari va saraton keng tarqalgan; shuning uchun havo ifloslanishi har yili dunyo bo'ylab millionlab o'lim bilan bog'liq. Yaqinda o'tkazilgan taddiqot shuni ko'rsatdiki erkaklarning bepushtligi va havo ifloslanishi o'rtaсидаги bog'liqliк mavjud bo`lib organizmni ish faolyatini izdan chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.M.Turobjonov, M.M.Niyazova, T.T.Tursunov, X.L.Pulatov. Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatashriyoti Toshkent – 2011
2. Pranav Kumar , Usha Mina. Fundamentals of Ecology and Environment. Pathfinder Publication New Delhi, India-2018
3. A.Ergashev,T.Ergashev.Ekologiya,biosfera va tabiatni muhofaza qilish.Toshkent<Yangi asr avlod>-2005y.
4. Yu.Shodimetov.Ijtimoiy ekologiyaga kirish.Toshkent <O'qtuvchi>-1994y
5. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami: — T.: Adolat. 2008.
6. Националний доклад о состоянияи природной среды Узбекистана. — Т: 2005, 2008.
7. Беспаметнов Г.П., Кротов Ю.А. Предельно допустимые концентрации химических веществ в окружающей среде. Справочник. — Л.: Химия, 1985.
8. Rromidas. Practical Problem Solving in HPLC. NEW YORK, 2000.
9. Определение химических веществ в воздухе. Сборник методических указаний. МУК 4.1. 1044-1053.01. Вип.2—4. 1.2. М: Минздрав России. 2002.
10. Шеховцов А.А., Звонов В.И., Чижов С.Г. Влияние отраслей

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

- народного хозяйства на состояние окружающей среды. — М.: 1995.
11. П. Эльтермон В.М Охрана воздушной среды на химических и нефтехимических предприятиях. — М., 1985.
12. Родионов А.И., Клужин В.Н., Систер В.Г. Технологические процессы экологической безопасности. — К.: 2000.
13. Цыганков А.П., Сенин В.Н. Циклические процессы в химической технологии. Основы безотходных производств. -М.:1984.
14. Наркевич И.П, Печковский В.В. Утилизация и ликвидация отходов в технологии неорганических веществ. — М.: 1984.
15. Пальгунов П.П., Сумарков М.В. Утилизация промышленных отходов. — М.: 1990. 178
16. Быстров Г.А., Гальперин В.М., Титов Б.П. Вторичное использование полимерных материалов. — М.: 1985.
17. Зайнутдинова Д.О. Системы управления ТБО и возможных путях ее совершенствования//Экологическая и гражданская безопасность. 2006. №8. С. 4—9.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Kadrlar tayyorlashda zamonaviy va milliy yondashuvlar

Sobirova Asilabonu Aziz qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich talabasi

E-mail:asilaazizovna87@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada ta'limdagi islohotlar haqida so'z boradi. Kelajak avlodga qanday usulda ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullari muhokama qilinadi. Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlangan davlatlardagi va O'zbekistondagi taqqoslashuvi va o'xshash jihatlari berib o'tilgan. Bu sohada olib borilayotgan islohotlarning samarali jihatlari va uni bolalarga to'g'ri tatbiq etish yo'llari ko'rsatilgan. Ta'limni rivojlantira olgan davlatning boshqa sohalari ham o'z-o'zidan yuksalib ketishi isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: xususiy, davlat, konsepsiya, oliy ta'lim, tizim, uzluksiz ta'lim.

**Bitta bola, bitta o'qituvchi, bitta kitob
va bitta ruchka dunyoni o'zgartira oladi.**

Malala Yousafzai

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta'lim to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, o'zbek milliy tajribasining tahlili va ta'lim tizimimizdagi jahon miqyosida erishilgan yutuqlar asosida tayyorlangan. Tabiiyki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, har bir sohani tubdan isloh qilish, shuningdek, yosh kadrlarni yetishib chiqishi va mamlakat rivoji uchun hissa qo'shishiga katta ahamaiyat berildi. Davlatimiz rahbarining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida quyidagi dolzarb masala alohida e'tirof etilgan: „2030-yilga borib O'zbekistonning 10ta oliy ta'lim muassasasi mingtalik xalqaro tashkilotlar reytingidan joy olishi zarur”. Bu vazifa yurtimizda yashayotgan nafaqat har bir pedagog yoki talanbani, balki har insonni fikr yuritishga, mulohaza qilishga chorlaydi. Kelajak avlod yetuk bo'lishi uchun, avvalo, o'sib borayotgan yosh avlodga e'tibor qaratish zarur. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim dasturidan qayta ishlandi, oliy ta'limga kirish imtihonlari qayta isloh etildi, bakalavriat, magistratura, doktorantura, malaka oshirish, qayta tayyorlash tizimi yangidan ko'rib chiqilib, umuman global va jahon miqyosi tan oladigan rejalar asosida tubdan isloh qilindi. Bir so'z bilan aytganda, uzluksiz ta'lim yurtimizning eng chekka nuqtalarigacha yetib bormoqda. Bunday islohotlar, ayniqsa yoshlarning maqsadli

harakatlariga rag'bat berish barobarida o'z kuchiga ishonch hissini ham uyg'ota olishga qodir. Yosh kadrlarni tayyorlash haqida yangicha yondashuvlar juda muhimdir. Bugungi kunda, bizning dunyoda o'zgarishlar shiddat bilan sodir bo'lishi bilan birga, yangi kasblar va sohalarda ham tayyor kuchli mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu sababli ham, hozirgi va kelajakdagi talabalarning o'rganish uslublarini va usullarini yanada yaxshilashga harakat qilishimiz kerak. Zero, oliv o'quv yurtini tamomlayotgan talaba yoshlar bo'lajak kadrlar hisoblanadi. Birinchi navbatda, talabalarga amaliyotni oshirish uchun ko'proq imkoniyatlar taqdim etish kerak. Bu, masalan, mashg'ulotlarda ish bilan shug'ullanish, loyihamalar ustida ishlash va sifatli mentorlik dasturlari orqali qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ikkinci navbatda, talabalarni yosh kadrlarga aylanib borish uchun foydali resurslardan foydalanish lozim. Masalan, bu o'quv kurslari yoki onlayn platformalar bo'ladi. Bu turdagи resurslar talabalarning zamonaviy texnologiyalarni o'rganishi va ularni kasbga yo'naltirishi uchun juda foydali bo'ladi va butun dunyo ta'lim tizimida olib borilayotgan rivojlanishlar, metodikalar, muvaffaqiyatlar sari yetaklaydi. Uchinchi navbatda, talabalar bilimini amalga oshirib borayotgan bir vaziyatda ish topishi kerak. O'quv jarayoni davomida, talabalar ish bilan mashg'u'l bo'lishlari va kasbi bo'yicha tajribalarini rivojlantirishlari kerak. Bu ularni o'zlarini yangi vazifalarga qarshi tayyorlashiga yordam beradi. O'zgaruvchilik va yangiliklarga mos keladigan dunyoda, yosh kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berish, talabalarimizni sifatli o'quv dasturlari va amaliyotli kasblar ustida tayyorlash orqali, ularni dunyodagi yangi vazifalarga to'g'ridan-to'g'ri tayyorlay olamiz. Yuqorida uchun yondashuvlar milliy an'analar asosida tahlil qilib yoritilgan bo'lsa, global tendensiyalar orqali turli rivojlangan davlatlarning ta'lom tizimiga e'tibor qaratamiz.

Buyuk Britaniya ta'lim tizimi misolida: mamlakatda ta'lim 5 yoshdan 16 yoshgacha bo'lganlar uchun majburiydir. Ta'lim sektorining 2 xil turi mavjud: davlat (bepul ta'lim) va xususiy (pullik ta'lim muassasalari, xususiy maktablar).

O'quvchilarning yoshi bo'yicha maktablarning tasnifi:

To'liq turdagи maktablar: 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun.

Maktabgacha ta'lim muassasalari: 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun turli o'yinlar orqali o'qish, yozish, hisoblashni o'rgatadigan bolalar bog'chasi. Bundan tashqari, oliv ta'lim tizimi 3 bosqichdan iborat:

1. Bakalavriat (3 yil);
2. Magistratura (1-2 yil);
3. Doktorantura (2-3 yil).



Dars mashg'ulotlari birmuncha O'zbekiston ta'limgiz tizimiga o'xshash, ya'ni klassik uslubda- ma'ruza va seminarlar, shuningdek mustaqil ishlar va tutorial(Ustoz boshchiligidagi kichik guruhlardagi mashg'ulot)lar orqali olib boriladi. Britaniya ta'limgiz tizimi o'zining xilma-xilligi, talabalar uchun qulayligi va jahon universiteti reytingi ichidan munosib o'rirlarni egallab turishi bilan ajralib turadi. Agar farqli jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Britaniyada maktablarning xillari juda ham ko'p va bir-biridan farq qiladi, ko'pincha o'quvchilar internet maktablarni Afzal ko'rishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar biror davlat yuksalmoqchi bo'lsa yoki sohalarini rivojlantirmoqchi bo'lsa, avvalo, o'zining ta'limgiz tizimini o'zgartirishi va yanada takomllillashtirishi zamон talabi hisoblanadi. Bizning ham Respublikamizda globallashuv sharoitida ta'limgiz yuz berayotgan o'zgarishlar muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirishi bilan bir paytda, pedagog-o'qituvchilar va tarbiyachilarning kreativ potensialini rivojlantirishga, ilm jihatining kengayishiga ijobjiy hissa qo'shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-48401>
2. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/3727.htm>
3. <https://genderi.org/mavzu-xxi-asr-jahon-talim-tizimidagi-global-tendensiyalar.html>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyuk_Britaniyaning_ta%CA%BClim_tizi_mi
5. <https://telegra.ph/Buyuk-Britaniya-oliy-talim-tizimi-haqida-10-11>
6. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. (2020). Adabiyot o'qitish metodikasi (bet-6). Toshkent.
7. M.H.Hakimova. (2021). Maktabgacha va boshlang'ich ta'limgiz tizimini modernizatsiyalashning afzalliklari va imkoniyatlari. Uzluksiz ta'limgiz, 3-5

Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish

Yusupboyev Bobojon Azamat o‘g’li

Urganch Davlat Universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti, Ekologiya va atrof muhit muhofazasi yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: Suv tabiatning bebahoi in’omidir, suvsiz yer yuzida hayot bo‘lmash edi. Olimlarning ko‘pchiligi ham ilk sodda organizmlar suvda paydo bo‘lganini tan olishadi. Suv bor ekan o‘simpliklar dunyosi, hayvonot olami va biz insonlar tirikmiz. Ushbu maqolada suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Suvning tabiatda aylanishi, suvning kimyoviy xususiyati, suvning fizikaviy xususiyati, suvning ifloslanishi, suvning isrof qilinishi, chuchuk suv muammosi, mexanik tozalash usuli, kimyoviy tozalash usuli, fizikaviy tozalash usuli, biologik tozalash usuli.

Suv va uning tirik organizmlar hayotidagi ahamiyati. Astronomlar o‘zga sayyoralarda hayot bor yoki yo‘qligini bilmoqchi bo‘lsalar, avvalambor o‘sha sayyorada suv bor yoki yo‘qligini aniqlashga kirishadilar. Chunki, hayot bo‘lishi uchun eng avvalo suv mavjud bo‘lishi kerak. YErda hayot dastlab suvda paydo bo‘lib, undan quruqlik – havo va tuproqqa o‘tganligini fan allaqachon isbotlagan. Suv o‘zining erituvchanlik hususiyati bilan tabiatdagi barcha tirik organizmlarning hayotini ta’minlab turadi. Rus geologiya fanining otasi akademik A.P.Karpinskiy "Suv eng qimmatbaho boylik bo‘lib, usiz yashash mumkin emas", deb yozgan edi.

Kishilar suvning ahamiyatini bilib, qadimdan daryo yoki ko‘l bo‘yida uylar, shaharlar qurib yashaganlar, ko‘chmanchi xalqlar doimo suv bor joyni izlaganlar. Kishilar dam olish uchun doimo suv bo‘lgan joylarga intiladilar. Suvda cho‘milib turish kishi salomatligini saqlashda va chiniqishda eng asosiy vositadir. Nemis olimi G.Libman aytganidek, "Bizning planetamizda kishilarning salomat qolishlari uchun texnikaning mo‘jizalari emas, balki toza, ichish uchun yaroqli suv etarli bo‘lishi kerak". Suv barcha tirik mavjudotlarning yashashi uchun tabiat tomonidan in’om etilgan oliy ne’matdir. Biz kundalik hayotimizni suvsiz tasavvur eta olmaymiz. Suv inson salomatligini saqlashda katta ahamiyatga egadir. Bilamizki, odam tanasining 75-80% i suvdan iborat. Agarda, tanasidagi suvni 6-8% ini yo‘qotsa, harorati ko‘tariladi, yurak urushi , nafas olishi tezlashadi, boshi aylanadi va og’riy boshlaydi. Suv yanada ko‘proq

yo‘qotilsa, odam halok bo‘lishi ham mumkin. Shundan ko‘rinib turibdiki, suv-hayot tiriklik manbaidir. Uni tejash, asrab avaylash har bir fuqaroning muqaddas burchiga aylanmog‘i kerak.

Ma'lumki, suv sayyoramizning 70% ni tashkil etib, u okeanlar, dengiz, daryo, ko‘l va er osti suvlaridan tashkil topgan. Sayyoramizdagi mavjud suv zahirasining o‘rtacha 1 foizini ichimlik suvi, qolgan qismini dengiz va okeanlarning sho‘r suvlarini tashkil etadi, qaysiki, ular ichishga, o‘simplik va hayvonlarni sug‘orishga yaramaydi. Ammo, okean va dengiz suvlarini ham iqlimi hosil qilishda, suvni aylanma harakatida, ulardagagi barcha o‘simplik va hayvonlarning yashashi uchun hamda suv transporti vositalarini yurishi uchun katta ahamiyatga ega.

Atmosfera havosining isishi tufayli Arktika va tog‘lardagi muzliklarning 40 foizdan ortig‘i erib ketdi, Afrikadagi Klimandjaro tog‘i muzliklari erib tugagan, Antraktidadagi muzliklardan aysberglar hosil bo‘lib, okean suvlariga erib ketmokda. Deyarli har yili YEvropaning ko‘p mamlakatlarida, Rossiyaning ko‘p viloyatlarida suv toshqinlari sodir bo‘lmoqda. Atmosfera havosining isishi davom etaversa XXI asrda Dunyo okeani sathi 1-5 metrga ko‘tariladi, quruqlikning salmoqli qismini suv bosishiga olib keladi.

O‘zbekistonlik mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra, atmosfera havosining isishi davom etaversa 2000-2030 yillarda Respublikadagi suv resurslari 15-25% kamayadi; atmosfera havosi isiganda suvni parlanishi kuchayib, ekinlar rivojlanish davrida ko‘p marta sug‘orishni talab qiladi. Ekinlarga suv etishmasligidan hosildorlik kamayadi.

Suvlarning ifloslanishi va isrof qilinishi. Suvsiz hayot yo‘q lekin inson o‘zining befarq faoliyati tufayli suvni shunchalik ifloslantirganki, endilikda bunday suv tabiatdagi barcha tiriklikni emiruvchi manbaga aylandi. Buning natijasi esa tuproq tarkibining buzilishiga, hayvonlar va insonlarning har xil kasalliklariga chalinishiga olib keldi. Suvga nisbatan bunday noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish faqat ekologik falokat emas, balki ma’naviy fojea hamdir. Suvlarni ifloslovchi manbalar juda ko‘p: va xilmoxildir. Bularga sanoat korxonalari va maishiy xo‘jalikdan chiqadigan oqova suvlar, qazilma boyliklarni ishlab chiqarishdagi oqovalar: neftni qayta ishlash korxonalaridan chiqadigan suvlar; kasalxonalardan oqib chiqadigan, chorvachilik komplekslardan oqib chiqadigan tozalanmagan suvlar va boshqalar kiradi.

Dunyo okeanlariga tashlanayotgan neft mahsulotlari, sanoat-maishiy chiqindilar, okova suvlar, radioaktiv va turli zaharli kimyoviy moddalar salmog'i yil sayin ortmoqda. Dunyo okeani suvlariga yiliga taxminan 10 mln. tonna neft mahsulotlari qo'shilmoqda. Dengiz ostidan neft qazib olish oqibatida yiliga 100-200 ming tonna neft quduqlaridan chiqib okean suvini ifloslantirmoqda. Yaqinda Portugaliya qirg'oqlarida avariyyaga uchragan Gresiya tankeridan 11 ming tonna neft Atlantika okeaniga oqib suvni ifloslantirgan. Oqibatda Portugaliya, Ispaniya yaqinidagi okean suvidagi hayvon va o'simliklar dunyosi ancha talofat ko'rdi. Okean suvlariga neft to'kilganda suv yuzasini parda qoplab, okean va atmosfera o'rtasida issiqlik, gaz almashinushi jarayonini buzadi. Oqibatda tabiatda suvning aylanma harakati, okean yuzasining radioaktiv hususiyatlari o'zgarib, suvdagi hayvon va o'simliklarning nafas olishi, hayotini qiyinlashtiradi.

Okean suvlariga yilda bir necha yuz ming tonna pestisidlar daryolar va atmosfera havosi orqali tushadi. Dunyo okeaniga simobning 30-35% (9-10 ming tonna), qo'rg'oshinning 2 mln.tonnasi tushayapti. Yakinda (2005 yil) Xitoydagagi zavod avariyasidan Amur daryosiga oqqan nitrobenzol, kadmiy va boshqa moddalar undan Tinch okeaniga oqib o'tdi. Bulardan tashqari kemalardan yiliga taxminan 7 mln.dona turli metal buyumlar, 500 ming donadan ziyod shisha idishlar, 1 mln.dan ortiq qog'oz va plastmassa qutichalar okeanlarga chiqindi sifatida tashlanmoqda.

Okean suviga tashlangan pestisidlar undagi o'simliklarni fotosinteziga zararli ta'sir etadi, hayvonlarni og'ir kasalliklar va o'limga mahkum etadi. Okeanga tashlangan og'ir metallar esa hayvon mahsulotlari orqali kishilarni zaharlaydi. Okean suvlari ifloslanganligi uchun ba'zi kurort shaharlari yaqinidagi joylarda hatto cho'milish taqiqlangan. Okean suvlarini ifloslanishi tufayli ularda baliq ovlash 15-25 mln.tonnaga kamayib ketdi, faqat baliq ovlashdan Yaponiya yilda 100 mln.dollar, AQSh da okean suvlari ifloslanishining barcha yo'qotishlari 10 mlrd.dollardan ortiqni tashkil etadi. Agar okean suvining ifloslanishini oldini olish borasida barcha mamlakatlar keskin choralar ko'rmasalar mashhur fransuz okeanolog Jak Kustoning bashoraticha "Sanoat va turizm rivojlangan yirik davlatlar zaharlashni to'xtatmas ekanlar, asrimizning so'ngidayoq okeanlarda hayot yo'qoladi".

Sayyoramizdagagi yirik daryolar, chunonchi, AQShdagi Missisipi, Angliyadagi Temza, Fransiyadagi Sena, Germaniyadagi Reyn, Rossiyadagi Volga va boshqa daryolarning suvi juda ifloslantirilgan. Oqibatda ularda yashovchi ko'p baliq turlari

qirilib ketdi. Shuningdek, O'zbekistondagi Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq kabi daryolar, ulardan tarqalgan ariqlarning suvi xam sanoat korxonalari va xonadonlardan chiqqan axlatlarni to'kilishidan ifloslangan, ba'zilarida hatto biron tirik organizm yashashi uchun sharoit yo'q.

Hozirgi davrda sayyoramizda ichimlik suvi etishmasligidan 2 mld.kishi qiyalyapti. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning bosh kotibi Kofi Annanning fikricha, 2015 yilda sayyoramizdagi aholining yarmi ichimlik suvi etishmasligidan qiynalib qoladi, 2025 yilda esa sayyoramiz aholisini uchdan ikki qismiga ichimlik suvi etmay koladi. Odam soni hozirgi darajada ko'payib borsa, bu 7,5 mld.kishini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtida dunyo bo'yicha 1 trillion dollar miqdorda ichimlik suvi idishlarga solib sotilmoqda. Yana 10 yildan sung, ichimlik suvini sotilishi 15 trillion dollarga ko'payadi. Bu neft mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadni 40 foizini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, suvni neftga o'xshash qayta ishslash zarurati bo'lmaydi. Kelgusida ichimlik suvi zapasiga ega bo'lgan mamlakatlar suvni sotib, katta daromad ko'radilar, ammo ichimlik suvi kam bo'lgan mamlakatlar katta iqtisodiy zarar ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasida, shuningdek viloyatimiz sharoitida yildan-yilga, ayniqsa, yoz oylarida ichimlik suvining etishmayotganligi sezilmoqda. Bundan tashqari mamlakatda aholining ko'payishi xam yuqori darajada. Yaqin yillarda uning soni 30 mln.ga etishi ko'zda tutilmoqda. Ya'ni suvga talab oshib bormoqda, suv esa kamaymoqda.

Viloyatimizda yagona bo'lgan Qashqadaryoning viloyat aholisi uchun ahamiyati benihoya kattadir. Ushbu daryo atrofida kishilar ming-ming yillardan buyon dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, tirikchilik o'tkazib kelishgan. Bir so'z bilan aytganda, Qashqadaryo vohasi xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyoti bevosita ushbu daryo bilan bog'langan. Viloyatning nomi ham undagi xalqlarning hayot-manbai bo'lgan daryo nomi bilan atalgan.

Suvning tarkibida normadan ortiq ko'payib ketgan xlor, sulfat, kalsiy tuzlari, neft mahsulotlari, radioaktiv elementlari chiqindilaridan hayvonlar va kishilar har xil kasalliklarga chalinmoqdalar, nobud bo'lib ketmoqdalar. Ayniqsa, Orol dengizi

atrofidagi aholi suv sho'rlanishidan buyrak va oshqozon-ichak kasalliklariga ko'p duchor bo'lmoqda.

Suvga nisbatan noto'g'ri munosabat tufayli sodir bo'lgan noxush ahvol bu faqat ekologik falokat emas, balki bizning ma'naviy fojiamizdir. Chunki, tabiatga qaratilgan zo'ravonlik ortida kelgusini ko'ra olmaydigan ma'naviy basir kishilar turadi.

Ilgari daryo va ariq suvlari ichilar edi, chunki u ziloldek toza bo'lgan. Suvga nafaqat kattalar, hatto yosh bolalar ham biron cho'p tashlashga jur'at etmaganlar. Chunki, suvni ifloslanadirish gunoh deb, ularga ekologik tarbiya berilgan. Hozir esa ba'zi kishilar hamma iflos chiqindini suvga tashlashadi. Ilgarilari suvdan tejab foydalanilgan. Hatto daryo yaqinida, ya'ni suv mo'1 joyda toat-ibodat qilinganda ham uni ortiqcha sarflamaslikka o'rgatilgan.

Viloyatimizning yuqori zonasidagi mavjud er osti suvi xalqimiz uchun katta omaddir, chunki banday toza ichimlik suvi hamma joyda ham topilmaydi. Viloyatning pastki zonasida joylashgan er osti suvining ko'p qismi sho'rlanib, iste'mol qilishga yaroqsiz holga kelib qolgan.

Yuqori zonadagi sifatli er osti suvi bugungi kunda minglab quduqlar orqali surilib olinayapti. Ushbu quduqlardan chiqqan suvning bir qismi sug'orish ishlariga sarflanayotgan bo'lsa, qolgan qismini Muborak gazni kayta ishslash zavodi va Sho'rtan gaz konlari ishlatmoqdalar. Dunyo bo'yicha er osti suvidan foydalanish yildan-yilga ko'paymokda. YEr osti suvini ko'p olinaverishi, uning sathini pasaytirib, erni cho'kishiga olib keladi. Masalan, AQSh ning Texas shtatida er osti suvini ko'p olinaverishidan er sathi 2-3 metr cho'kkani; Yaponiyaning Tokio, Osaka shaharlarini tuproq yuzasi yilda 18 sm cho'kayapti; Meksikaning Mexiko shahrida er osti suvini ko'p olinaverishidan, ba'zi joylarda 8-9 m cho'kkanligi haqida ma'lumotlar bor. Eng yomoni shundaki er osti suvi ko'p olinaversa, uning o'rni to'lib ulgurmaydi. Oqibatda AQSh ning Texas shtatidagi ko'p quduqlaridan suv chiqmay qolgan. Artizan quduqlari suv bermay qolsa, shaharlar suvsiz qoladi, qishloq xo'jaligi xarob bo'ladi. Bunday holat bizda ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun er osti suvini ham tejab, me'yorida olish kerak. Ba'zi joylarda ancha olisdan va qancha xarajatlar bilan keltirilgan toza vodoprovod suvini asbob-uskunalarni, mashinalarni yuvishda ishlatishadi yoki vodoprovod jumraklarini ochib qo'yishadi, suv keraksiz joylarga oqib yotadi. Shaharning ko'p joylarida, ayniqsa, yoz oylarida suvning etishmasligi yildan-yilga

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

sezilib borayotgan vaqtda, boshqa joylarda suvning isrof qilinayotganini kurasiz. Ya'ni, shaharning hamma joyida vodoprovod suvi bir xil taqsimlanmagan.

Xalqimizning hayotini yaxshilashni asosiy yo'llaridan biri uni toza ichimlik suviga bo'lgan talabini to'liq qondirishdir. Buning uchun suvni ko'paytirish va uni toza saqlash choralariga yanada ko'proq e'tibor qaratilishi kerak. Ma'lumki, suvning manbai bo'lgan qor tog'larga kam tushmoqda, muzliklar maydoni borgan sari qisqarib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri o'tgan asrning birinchi yarmilarida tog'lardagi o'rmon-daraxtlarning, ayniqsa, archazorlarning qirqilib yuborilganligi, tog'larning yalong'och bo'lib qolganligidir. Viloyatimiz tog'laridagi o'rmonlarning 50 foizidan ko'prog'i qirqilib yuborilgan. Buning oqibatida suv kamayib, ko'p buloqlar qurib ketdi. Bahor oylarida tushgan nam xam tez bug'lanadi, shamol va yog'ingarchilik ta'sirida er eroziyaga uchraydi. Oldingi avlodlar yo'l qo'ygan xatoning jabrini keyingi avlodlar tortayapti. Hozirgi kunda bu borada yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilmasa, kelajak avlodning ahvoli bundan ham tang bo'ladi. Bu joylarda tabiat muvozanatini tiklashning asosiy sharti yangi o'rmonlar barpo qilishga ko'proq e'tibor berishdir.

Suvni muhofaza qilishning asosiy shartlaridan biri, uni tejab sarflashdir. Suvni tejashda borgan sari ko'payib borayotgan oqova suvlarini yig'ib, uni tozalash va qayta ishlatalish katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekologiya (I.Xolliyev, A.Ikromov)
2. Sh. Avezov Ekologiya va atrof - muhit muhofazasi. T.Ilm -ziyo. 2013 y
3. I. Xolliyev, A. Ikromov Ekologiya. T.Cho'lpon 2012 y
4. Z.I.Xolliyev va b. Ekologiya. T. 2001 y.

